

**XASHAKI LAVLAGINING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI, XALQ VA
QISHLOQ XO‘JALIGIDAGI AHAMIYATI**

Esirgapova Umida Xasanovna

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali tayanch doktoranti (PhD)*

e-mail: esirgapovaumida073@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada chorvachilikni to‘yimli ozuqasi bo‘lgan yem-xashak o‘simligi bo‘lgan ildizmevali ekinlardan biri xashaki lavlagi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek xashaki lavlagi O‘zbekistonda Davlat reestriga kiritilgan xashaki lavlagi navlari haqida ma’lumot keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xashaki lavlagi, yem-xashak, sug‘oriladigan yerlar, hosildorlik*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о свекле, одном из корнеплодов, который является кормовым растением, являющимся питательным кормом для скота. Также имеются сведения о сортах свеклы, внесенных в Госреестр свеклы Узбекистана.*

Ключевые слова: *свекла, корм, орошаемые земли, урожайность.*

Abstract: *This article presents information on beetroot, one of the root crops, which is a forage plant that is a nutritious feed for livestock. There is also information about beetroot varieties included in the State Register of Beetroot in Uzbekistan*

Key words: *beetroot, fodder, irrigated land, productivity.*

Kirish Bugungi kunda dunyo qishloq xo‘jaligi amaliyotida chorvachilikda to‘yimli yem-xashak bazasini yaratish borasida yangi innovatsion yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilib, ishlab chiqarishda joriy etilmoqda.

Ta'kidlash kerakki, chorvachilikni to‘yimli yem-xashak bazasi bilan ta'minlashda ildizmevali ekinlardan xashaki lavlagi alohida o‘rin tutadi.

Ayni vaqtda dunyoda xashaki va qand lavlagi yetishtiriladigan maydonlar hajmi 30 mln. 862 ming gektarni tashkil etib, eng ko‘p maydon Amerika qit‘asida 14 mln. 150 ming gektarni, Osiyoda 11 mln. 524 ming gektarni, Yevropada 2 mln. 963 ming gektarni, Afrikada 1 mln. 816 ming gektarni va Okeaniyada 409 ming gektarni, dunyo mamlakatlari orasida eng ko‘p maydon Braziliyada 9 mln. 971 ming gektarni, Hindistonda 5 mln. 159 ming gektarni, Tailandda 1 mln.495 ming gektarni, Xitoyda 1 mln. 365 ming gektarni, Pokistonda 1 mln. 264 ming gektarni, Rossiyada 994 ming gektarni, Amerikada 828 ming gektarni, Meksikada 814 ming gektarni tashkil etadi

Tadqiqot ob‘ekti Tadqiqot ob‘ekti sifatida xashaki lavlagi tanlab olindi. Xashaki lavlagi (*Beta vulgaris.S*) sho‘radoshlar (*Chepodiaceae*) oilasiga mansub o‘simlik bo‘lib, vatani janubiy yarim sharda joylashgan mamlakat va orollar hisoblanadi.

Xashaki lavlagi O‘zbekistonda faqat sug‘oriladigan yerlarda o‘stiriladi. O‘zbekistonda xashaki lavlagining “O‘zbekiston –yarimqand”, “O‘zbekiston - 83” navlari Davlat reestriga kiritilgan. Yengil hazm bo‘ladigan, qoramollarda sutni ko‘paytiradigan, ozuqa ekini. Xo‘jaliklarda sut beradigan qoramollar ratsionida xashaki lavlagi 40-50 % ga etadi. Lavlagi ildizmevasi foydali ma‘danli moddalar, vitaminlardan tashkil topib, karotinga boy. Ildizmevalar hazmlanishi bo‘yicha yaylov o‘tlaridan qolishmaydi, dag‘al oziqalarning hazmlanishini yengillashtiradi. Konsentrant yemni tejashga imkon beradi hamda nasl berishni yaxshilaydi. U asosiy yoki takroriy ekin sifatida o‘stirilsa, qoramollarning oqsilga boy va ekologik toza lavlagi sabzavoti ko‘payadi.

Xashaki lavlagi madaniy o‘simlik sifatida dastlab XVI asrda Germaniyada joriy qilingan bo‘lib, XVIII asrda esa butun Ovrupo mamlakatlariga tarqaldi. Xashaki lavlagini ildizmeva kimyoviy tarkibi jihatidan boshqa turdagi lavlagilardan tarkibida klechatka miqdorini yuqoriligi bilan ajralib turadi. Asosan Ovrupo mamlakatlarida, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Kanada, Rossiya Federasiyasi, Braziliya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Aljir, Tunis kabi mamlakatlarda yetishtiriladi [4].

Zamonaviy lavlagining barcha shakllari, jumladan qand, yarim qand, xashaki, osh, bargli-B.vulgaris L. turiga mansub bo'lib, quyidagi ikkita kenja turni o'z ichiga oladi: B.cicla va B. Crassa [100; 264-b]. [104; 8-18-120-130-b].

Rossiya Federasiyasida asosiy ozuqa ekin turlari to'rtta bo'lib, bularga xashaki lavlagi, bryukva, turneps va sabzi kiradi [10; 183-b]. Birgina Rossiya xashaki lavlagi yetishtiriladi [2].

V.F.Supak., V.M.Leontev., I.S.Gavrilov., N.A.Drozdo [3] larning qayd etishicha, xashaki lavlagi chorvachilik uchun to'yimligi jihatidan faqat sabzi va bryukvadan keyingi o'rinda turadi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1 kg xashaki lavlagi ozuqasida 8,7 ozuqa birligi mavjud.

Muhokama va natijalar Xashaki lavlagi qishloq xo'jaligi ekinlari orasida chorvachilikda yuqori va to'yimli ozuqa bazasini yaratish va mustahkamlashda yuqori mahsuldor ekinlardan biri sanaladi. U chorvachilikda turli xil vitaminlar manbai bo'lib, undan qish va yoz oylarida ham foydalanish mumkin. Undan tayyorlangan ozuqa hayvonlar ozuqa ratsioniga qo'shib berilganda sut olish mahsuldorligi ikki barobarga oshadi, organizmda yog' va oqsil miqdorini ko'paytiradi hamda yetishmayotgan vitaminlar o'rnini to'ldiradi [1].

Lavlagi tuproq sho'riga chidamli o'simlik hisoblanadi. U rivojlanishining birinchi davrida tuproqdagi tuzlar miqdori 0,2-0,3%, ildizmeva rivojlanish davrida 0,-0,6% bo'lishi lavlagi rivojlanishiga salbiy ta'sir etmaydi [3].

Klassifikatsiyaga ko'ra, lavlagi tuproqdagi suvda eruvchan tuzlarning miqdori 0,8-1,0 % bo'lganda ham hosil bera olish qobiliyatiga ega bo'ladi [5].

Tuproq unumdor bo'lgan yerlarda yaxshi o'sadi. Mexanik tarkibi qum va qumloq bo'lgan tuproqlarni xush ko'radi. Uning me'yoriy o'sib rivojlanishi uchun tuproq muhiti rN 6-7dan oshmasligi kerak. Tuproq sho'rlanishiga bardoshli. Amal davri 120-145 kuni tashkil etadi [2].

Olimlarning qayd etishicha, xashaki lavlagini amal davri nisbatan uzoqroq bo'lganligi uchun u qanchalik erta muddatda ekilsa, uning o'sib rivojlanishi yaxshi bo'ladi. Faqat bunda tuproq harorati +7-8 S⁰ dan kam bo'lmasligi kerak [7].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, xashaki lavlagi to‘yimligi va yuqori kaloriyaga ega ekanligidan O‘zbekiston sharoitida chorvachilik uchun eng asosiy ozuqa ekinlaridan biri hisoblanadi. Xashaki lavlagidan yuqori va sifatli hosil olish uchun O‘zbekistondagi tuproq iqlim sharoiti mos kelishi va xashaki lavlagini yetishtirish uchun imkoniyatlar yetarlicha ekanligi adabiyotlar tahlilida keltirib o‘tilgan.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Xoliqov B.M. Qand lavlagi yetishtirish agrotexnologiyasi va almashlab ekish. Toshkent, 2013, 50-51 betlar.
2. Xoliqov B.M. Qand lavlagi yetishtirish agrotexnologiyasi va almashlab ekish. Toshkent, 2013, 39-40 betlar.
3. Xoliqov B.M. Qand lavlagi yetishtirish agrotexnologiyasi va almashlab ekish. Toshkent, 2013, 41-43 betlar.
4. Xoliqov B.M. Qand lavlagi yetishtirish agrotexnologiyasi va almashlab ekish. Toshkent, 2013, 50-51 betlar.
5. <https://www.ru.wikipedia.org/wiki/>
6. <https://www.kombibar.by/blog/svekla-kormovaya-osobennosti-primeneniya-pri-vyrashchivani-skota-i-ptitsi>